

**BOSHLANG‘ICH SINF SAVODXONLIK DARSLARIDA  
SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUVNING  
AHAMIYATI VA QO‘LLASH METODLARI**

**O‘rinov U.A.**

Osiyo xalqaro universiteti professori  
p.f.d. DSc

**Sayfullayeva Gulchiroy Alisherovna**

Osiyo xalqaro universiteti  
1-kurs magistranti

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf savodxonlik darslarida shaxsiy qadriyatli yondashuvning ahamiyati, bu yondashuvning savodxonlik darslarida qo‘llash metodlari haqida boyon etiladi.

**Kalit so‘zlar :** Shaxsiy qadriyat, savodxonlik darslari, qadriyatli yondashuv, metod.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье описывается значение личностно-ценостного подхода на уроках грамоты в начальной школе, методы применения этого подхода на уроках грамоты.

**Ключевые слова:** личностная ценность, уроки грамоты, ценностный подход, метод.

**ABSTRACT**

This article describes the importance of the personal value approach in elementary school literacy classes, the methods of applying this approach in literacy classes.

**Key words:** Personal value, literacy lessons, value approach, method.

**KIRISH**

Jahonda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayonining ta’siri dastlab ta’lim tizimida ko‘zga tashlanayotgani sir emas. Bunda yosh avlodni elementar bilimlar bilan qurollantirish hamda savodxonlikni oshirish masalasi boshlang‘ich ta’limga ham alohida vazifalar yuklaydi. Jumladan, boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv muammosining turfa yechimi asosida ta’lim tizimida bola shaxsiga

qaratilgan ta’lim texnologiyalari, erta bolalik davridan ta’lim berish muammosi, o‘quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ta’lim mazmunini belgilashda ularning qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendensiyalari ustunlik qilmoqda.


Dunyo ta’lim tizimida bolalarning bilim olish jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuvni amalga oshirish boshlang‘ich ta’lim sohasidagi yangilanishlarning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida o‘quvchilarining qadrli va muhim jihatlariga e’tiborli bo‘lib, qo‘llab-quvvatlash, zarur hollarda rag‘batlantirish, ulardagi alohida o‘ziga xos qobiliyatlarni aniqlash var ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### ASOSIY QISM

Yevropa va yaqin xorij pedagogik soha izlanishlari natijasida yosh avlodning qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha moddiy-pragmatik yondashuvga o‘tish jarayonida shaxs ma’naviyatida salbiy jihatlar ko‘payib borish xavfi kuchli ekanligi aniqlanmoqda. Bu muammoning yechimlaridan biri sifatida boshlang‘ich ta’limdan Shaxsiy- qadriyatli yondashuv metodikasini qo‘llash, ta’lim jarayoni bilan birgalikda o‘quvchilarda shaxsiy qadriyatlarni hamda shaxsiy dunyoqarashni shakllantirib borish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga ularda sharqona odob-axloqqa xos bo‘lgan barcha xislatlar, jumladan, o‘z milliy va shaxsiy qadriyatlariga hurmat, yurtni e’zozlash, ilm egallash, ota -onani, oilaviy munosabatlarni qadrlash kabilar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarda bu xislatlarni shakllantirishda savodxonlik darslari alohida o‘ringa ega.



Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlарimizning ijodiy-mustaqliligi, o‘z fikrini erkin va ta’sirli, mazmunli va mantiqli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doiralarini kengaytirishga, ona yurtimizga, avlod-ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviyatimizga, milliy urfodatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Ona tili va o‘qish darslarida multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, axborotning xilma-xillligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi. O‘quvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘quvchilarda o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi; o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantiradi; o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; o‘quvchi mavzu bo‘yicha yangi fikrlarni bildirishga va o‘ziga o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi.


Sharq mutafakkir allomalaridan Beruniy ta’limotiga ko‘ra inson kamolotida uch narsa muhim rol o‘ynaydi:



Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o‘quvchiga bilim berishda: o‘quvchini zeriktirmaslik; bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik; uzviylik, izchillik; yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligini uqtiradi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta’kidlaydi. Beruniyning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.[2] Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida qo‘llaniladigan matnlar, topshiriqlar va beriladigan hikoyalarda shaxsiy qadriyatlarni, milliy mafkuraga asoslangan mustaqil dunyoqarashni shakllantiradigan sharq mutafakkurlarining asarlaridan, she’r va ruboiylari, to‘rtlik hamda hikmatli so‘zlaridan asosli ravishda ko‘proq foydalanish lozim. Negaki, hozirgi dolzarb, ommaviy madaniyatning salbiy tomonlari doimiy xavf solib turgan, xalqlar o‘rtasida mafkuraviy kurash bo‘lib turgan zamonda bunday asarlar inson sifatida o‘z shaxsiyatimiz, shaxsiy dunyoqarashimizni, millat sifatida azaliy milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishda va bularni kelajak avlodga yetkazishda ma’naviy ko‘mak beruvchi boy manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Imom al-Buxoriy asarlarining, Sadiy Sherzoziyning “Guliston” “Bo‘ston” asarlaridagi shaxsiy, insoniy, milliy qadriyatlarni ko‘rsatib beruvchi hikoyalaring, Alisher Navoiy , Zahiriddin Bobur, Abdulla Avloniy , Abdulla Qodiriy asarlarining boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan tadbillaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘qish darslarida yuqorida nomlari keltirilgan mutafakkirlarning asarlari hamda hikmatli so‘zlarini, xalq og‘zaki ijodining bebaho durdonalari bo‘lgan maqol va matallarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qitishda quyida namuna sifatida keltirilgan topshiriqlar hamda metodlardan foydalanish mumkin:





## XULOSA

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonlik darslarida shaxsiy qadriyatli yondashuvning ahamiyati juda muhim bo'lib, bolalarda o'z shaxsiyatini va shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Sharq mutafakkirlarining ma'naviyatni yuksaltiradigan, insoniylikni tarbiyalaydigan asarlardan foydalanib darslarni olib borish ham ta'lif rivojlanishida ham tarbiyani shakllantirishda hamda shaxsiy qadriyatlarni odatga aylantirishda muhim rol bajaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. S. M. Norboyeva. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari orqali bo'lajak pedagoglarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish. таълим технологиялари. 10.34920/SO/VOL\_2022\_ISSUE\_12\_4
2. K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005-y.
3. N. Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya", 2003.
4. R. Jo'ruyev, A.Zunnunov. Ta'lif jarayomda o'quv fanlarini integratsiyalash. T.. "Sharq". 2005.
5. T. G'afforova "Boshlang'ich ta'lifda zamonaviy pedagogik texnologiyalar". T."Tafakkur", 2011-yil.